

OMAD DOIM BILIMLILARGA KULIB BOQADI !!!

Farzandlarimiz bizdan ko`ra kuchli, bishimi, done va, abatta, baxtli bo`lishlari shart !

REPETITION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN



SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____

Abituriyent diqqatiga !

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha 30 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamliqi aniqlansa yoki savollar savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'limsa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Variant-1

FANLAR :

- Blok. Ona tili va adabiyoti
- Blok. Biologiya
- Blok. Tarix

OMAD YOR BO'LSTM !!!

Navbatdagi test sinovi 23.06.2019 da bo'lib o'tadi
Telegram:@ilm_u_ziyo_ATM

Ona tili va adabiyoti 1-variant

- 1.** Qaysi qatorda “fikrlar butqa” sidan iborat gap berilgan?
 A) Kumush qishdan, zumrad bahordan qolishmaydi kuzning ziynati.
 B) Kumush choyshab yopib dalalar qor qo’ynida uxbab yotadi.
 C) Qish kelib paxta gulladi.
 D) Traktor qulay deb turgan devorlarni tekislay boshladи.
- 2.** Ul sanamkim suv yaqosida paridek ulturur,
 G’oyati nozukligidin suv bila yutsa bo’lur. O’xshatish etalonining gapdagи vazifasini aniqlang.
 A) aniqlovchi B) hol C) ega D) to’ldiruvchi
- 3.** Unga, buncha, shunga, shuncha, o’shanday, bunday, shunday Berilgan birliklardan nechta olmosh tarkibida fonetik hodisa bo’lishiga misol hisoblanadi?
 A) 4 B) 5 C) 7 D) 3
- 4.** Qaysi gaplarda otlashgan sifatdosh bilan ifodalangan vositali to’ldiruvchining kesimiga tobelanishi kuzatiladi?
 1. Bilmagandan bilgan yaxshi, to’g’ri ishni qilgan yaxshi.
 2. O’tirganlar otning baland ovozda kishnaganini eshitishdi.
 3. Yaxshiga yaxshi nom fe’lidan yetar,
 Sha’niga barcha el rahmatlar aytar.
 4. Topganingdan yo’qotganing ortiqcha bo’lmasin, - dedi nabirasiga.
 A) 1, 3 B) 1, 4 C) 1, 2, 4 D) 1, 3, 4
- 5.** Oltin o’tda bilinadi, odam – mehnatda. Mehnat bilan inoqlashsang, Tan og’rig’in ko’rmaysan. Ko’p ishlagan ko’p yashaydi. Mehnat qilsang, qo’lingga yorug’lik kiradi. Ushbu matnda yasama so’zlar tarkibida nechta o’rinda shovqinli jarangli sirg’aluvchi undosh qatnashgan?
 A) 4 ta B) 5 ta C) 6 ta D) 7 ta
- 6.** So’z birikmasi va qo’shma so’zga oid umumiy fikrlarni toping.
 1) qismlari orasidagi grammatick aloqa sezilmaydi;
 2) bir xil grammatick shaklga ega bo’lishi mumkin;
 3) qismlari bir xildagi so’z turkumlariga oid bo’lishi mumkin;
 4) ularni tashkil etuvchi qismlarning har biriga alohida alohida so’roq berish mumkin
 A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 4 C) 1, 4 D) 2
- 7.** Ochinglar millati vayronani obod etgusi mактаб. O’qusin yoshlarimiz ko’nglimi shod etgusi maktab. Berilgan gap yuzasidan nechta hukm to’g’ri?
 1. Moddiy shakli bir xil birliklar bir xil gap bo’lagi vazifasida kelgan.
 2. Qaralmishning tobesi belgisiz qo’llangan.
 3. Eski o’zbek tiliga oid grammatick shakl qo’llangan.
 4. Sintaktik usulda yasalgan so’z mavjud.
 A) 2 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 1 ta
- 8.** Bog’ni gullatishgina emas, balki undan mo’l-ko’l va shirin hosil yetkazib berish ham san’atdir. Ushbu gapda qatnashgan yordamchi so’z turkumiga xos birliklar haqidagi noto’g’ri fikri aniqlang.
 A) yuklamalarning ikki ma’noviy turi qatnashgan
 B) yuklamalar har xil gap bo’lagi vazifasini bajargan so’zlarga qo’shimchama’no yuklagan
 C) mazmuniy munosabat ifodalashga ko’ra bog’lovchining ikki turi qatnashgan
 D) sof va vazifadosh bog’lovchi qatnashgan
- 9.** Qaysi gapda fe’lning buyruq-istak mayliga oid munosabat shaklining badiiy uslubga xos ko’rinishi qo’llangan?
 A) Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim faqat eslab yongayman, birinchi muhabbatim.
 B) Qora ko’zum, kel-u, mardumliq emdi fan qilg’il, Ko’zum qarosida mardum kabi vatan qilg’il.
 C) Ko’rgali husnungni zor-u mubtalo bo’ldum sanga, Ne balolig’ kun edikim, oshno bo’ldum sanga.
 D) Yaxshini maqtasang - yarashur, Yomonni maqtasang - adashur.

- 10.** Davomiy bo’lishsizlik ma’nosini ifodalagan ko’makchi fe’lli so’z qo’shilmasini qatnashgan gapni aniqlang.
 A) Yomonga yondashgan yiqilmay qolmas, oxiri chuqurga tiqilmay qolmas.
 B) Shundan so’ng bu haqda hech kimga gapirmay qo’ydi.
 C) Sizlar el-yurt ahvoldidan xabar olmaysiz, faqat o’z manfaatingizni o’laysiz, el-yurt manfaatini ko’zlamaysiz.
 D) Men u odamni baholaganimda yanglishmadim, to’g’ri so’zladim.
- 11.** Agarda yolg’ondan bersa guvohlik, Uning ham gunohin kechirmas Xoliq. Shu to’rtta gunohdan kim bo’lsa forig’ Bilingki, ularning manglayi yorug’ Ushbu she’riy parchada faqat so’zlik xususiyatiga ega birliklar miqdori nechta?
 A) 5 B) 6 C) 3 D) 4
- 12.** Quyidagi qaysi jumla tilning sintaktik tabiatiga nouyg’un shakllanib ikki yoqlama mazmun kasb etgan?
 A) Chin so’yla xito xo’blariga kim bo’lasan.
 B) Bo’lubdir kech xavas bozoridan kech.
 C) Loqaydlik tufayli ko’rsak ham, indamaymiz.
 D) Bola xonaga chopdi.
- 13.** Qaysi qatorda ko’p kesimli gap berilgan?
 A) Uyida ko’p ish qildi, supurdii, tozaladi, kir yuvdi.
 B) Dalasida o’smas tikonlar, cho’llarida chopmas ilonlar C) Biz harbiy uchuvchi va vatan posbonlari bo’lamiz.
 D) Suv keldi- nur keldi.
- 14.** Egasi shaxs otı bilan ifodalangan gapni aniqlang.
 A) Kitobxonni yo’q asar egasi tashlab ketgan uyya o’xshab fayzsizdir.
 B) Qalbi qog’ozdek oppoq, qog’ozdek lovullab yonadigan odamgina chinakam san’at asari yarata oladi.
 C) Yaxshi farzand ota umrini davom ettirishi azaldan ma’lum, yaxshi asar esa yozuvchi umrini davom ettiradi.
 D) Haqiqiy haykaltarosh o’lik toshdan yasagan haykal tirikka o’xshaydi.
- 15.** Quyidagi gaplarning qaysi birida aniqlovchi va to’ldiruvchi uyushgan?
 A) U hamma vaqtdagidek did va farosat bilan kiyungan, avvalgidek chirolyi, xushmuomila edi.
 B) Inim, dunyoda kitob o’qimoqdan, tafakkuridan, she’r aytmоqdan zavqбaxsh mashg’ulot yo’qdir.
 C) Shoир o’z hayotida yaratgan ilmiy, madaniy muassasalarning yashashini, hayrli ishlarning o’zidan keyin ham kattaroq miqyosda davom etishini orzu qildi.
 D) Shu yerga kelganda, mingboshining qovog’i solina boshlagan edi, qisiq ko’zlarining tez tez yumilib pirpirayotgандек bo’lgанини Miryoqub ham payqади.
- 16.** Ikki o’rinda mustaqil to’ldiruvchi, ikki o’rinda nomustaqil to’ldiruvchi ishtirot etgan gapni aniqlang.
 A) Yer qor va yomg’ir namlarini yig’ib, kelgusi yil bosili urchun asrab turadi, o’zida kuch to’playdi.
 B) Ona tilimizning imkoniyatlaridan to’g’ri foydalanish urchun uning so’zboyligini bilishgina kifoya qilmaydi.
 C) Bobom shirinso’zlik har qanday baloni qaytarishga qodirligini aytди.
 D) Shoira xalqni og’ir sinovlar, ulug’ o’zgarishlar jipslashtirishini, uningkuch-qudratini imtihon qilishini yozadi.

17. Quyidagilardan to'g'ri tasnifni aniqlang.

A)	Mazmuniy bog'liqlik: Abzas, takrorlar, ko'rsatish olmoshi	B)	Mazmuniy bog'liqlik: yuqorida aytib o'tilgani, aniqli so'zлari
	Mantiqiy bog'liqlik: shunday ekan, shunday qilib so'zлari		Mantiqiy bog'liqlik: Abzas, takrorlar, ko'rsatish olmoshi
	Kompozitsion bog'liqlik: yuqorida aytib o'tilgani, aniqli so'zлari		Kompozitsion bog'liqlik: shunday ekan, shunday qilib so'zлari
C)	Mazmuniy bog'liqlik: shunday ekan, shunday qilib so'zлari	D)	Mazmuniy bog'liqlik: shunday ekan, shunday qilib so'zлari
	Mantiqiy bog'liqlik: yuqorida aytib o'tilgani, aniqli so'zлari		Mantiqiy bog'liqlik: Abzas, takrorlar, ko'rsatish olmoshi
	Kompozitsion bog'liqlik: Abzas, takrorlar, ko'rsatish olmoshi		Kompozitsion bog'liqlik: yuqorida aytib o'tilgani, aniqli so'zлari

18. Qaysi gapda faqat bitta tub so'z mavjud?

- A) Rahmsizlik hamisha ojizlik, qo'rqoqlik, vahimada kelib chiqadi.
 B) Xatoliklar nisbati o'zgarishi umumiy ko'rsatkichga ta'sir qilmaydi.
 C) Millionlab insonlar iyomon sari yuz tutdi.
 D) Zaruratsiz, ichki dardsiz, ehtirossiz yozilgan asar o'likdir

19. PERIODLAR qaysi til hodisasining tasniflanishidan vujudga keladi?

- A) matn B) insho C) gap D) tovush

20. Yangajon dedim.

Qaynim-ov dedi.

Beriroy kel dedim.

Aynimov dedi. Berilgan gapda so'zga qo'shimcha ma'no beradigan turkumming shakldoshi nechta?

- A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) bunday shakl mayjud emas.

21. Dil - kabobim, qon - sharobim, ashki hasrat - nuqli bazm, Yetdi qassomi azalning xidmati tan 'imidan misralarining muallifi kim?

- A) Gulxaniy B) Mashrab C) Turdi D) Zavqiy

22. 1) ... sel ofatiga yo'l ochaman, deb qo'li bilan Qaysning ko'zini ochdi;

2) Qaysning og'zini yuvib, «bu yerdan oh o'tlarini falakka o'rлатаман» dedi;

3) uning boshini silab, «bu bosh ustiga tosh yog'diraman» dedi;

4) ... esa «bundan boshqa pok manzil yo'q», deya uning ko'ngliga moyil bo'ldi.

“Layli va Majnun” dostoniga oid javoblarni moslashtiring.

a) bebosh firoq; b) balo; d) ishq; e) dard;

- A) 1-d; 2- a; 3-e; 4-b B) 1-b; 2-e; 3-a; 4-d

- C) 1-a; 2- d; 3-e; 4-b D) 1-b; 2- a; 3-d; 4-e

23. Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasida “HAMMA BOSH EGADI DUNYODA AXIR” deyilganda nima nazarda tutilgan?

- A) motam B) qabr C) sartarosh D) ona

24. “Oltin qon” rivoyati qaysi asar tarkibida mayjud?

- A) Hibat ul-haqoyiq B) Maxbub ul-qulub

- C) Devon lug'at-it turk D) Lison ut-tayr

25. Cho'lpox tarjimalarini mualliflari bilan moslashtiring.

1) Gogol; 2) Gorkiy; 3) I. Franko; 4) Shekspir; 5) Andreev;

6) Pushkin;

a) «Boris Godunov», «Dubrovskiy»; b) «Ona»; d) «Tergovchi»;

e) «Osilgan yelli kishining hikoyasi»; f) «Feruza»; g) «Hamlet»;

- A) 1-b; 2-a; 3-d; 4-g; 5-e; 6-f;

- B) 1-d; 2-a; 3-f; 4-g; 5-e; 6-b;

- C) 1-d; 2-b; 3-g; 4-f; 5-e; 6-a;

- D) 1-d; 2-b; 3-f; 4-g; 5-e; 6-a;

26. Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,

Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur!

Sarrishtai ayshdin ko'ngulni zinhor

Uz, oh, Zahiriddin Muhammad Bobur!

Ushbu bayt haqida to'g'ri tahvilni toping.

- A) faqat tezisda **radif mavjud**

- B) **bayt sintezida bosh qofiya** qo'llangan

- C) bayt antitezisi begona bayt

- D) ushbu bayt qit'a janrida

27. Sabr bunyodini bir boqish bilan barbod urub,

Ohkim, soldi ko'ngul mulkiga yag'mo surating.

Bayt muallifi va unda qo'llangan badiiy san'atlarni aniqlang.

- A) Muqimiy; tazod, alliteratsiya

- B) Furqat; tanosub, tashbeh

- C) Komil; oksimoron, alliteratsiya

- D) Zavqiy; tazod, tajnis

28. Berilgan badiiy asarlarning nechtasida **TIRIKLAR GO'RISTONIDA YASHAGAN adabiy qahramonning ismdoshlari berilgan?**

Qiyomat qarz, Qutlug' qon, Jamila, Kecha va kunduz, Tunyuquq bitigi, Surat bilan suhbat.

- A) 2 tasida B) 1 tasida C) 3 tasida D) 4 tasida

29. Tuyuqqa oid noto'g'ri hukmni toping.

A) Bu janr namunalarini faqat turkiy she'riyatdagina uchratamiz.

B) Tuyuq misralari, xuddi ruboiydag'i kabi, a-a-a-a yoki a-a-b-a tarzida qofiyalanishi zarur.

C) Tuyuq, albatta, ramali musammani mahzuf (yoki maqsur) vaznida bo'lishi kerak.

D) Tuyuqda qofiyaga olingan so'zlar, albatta, tajnisli bo'lishi, ya'ni omonim so'zlardan tashkil topishi darkor.

30. Quyidagi qaysi asarda Shayx Sa'diyning “dunyoda hayotidan qo'l yuvuguchidek tili uzun kishi bo'lmas” degan hikmati keltirilgan?

- A) Qutadg'u bilik

- B) Mehrobdan chayon

- C) Devoni hikmat


- D) O'tkan kunlar

Tuzuvchi: Sardor Ergashov

Taklif va e'tirozlar uchun: +99893 695 80 19

Biologiya 1-variant.

1. Quyidagi rasmida 4-raqamli hayvonga tegishli javobni toping.



A) sutevizuvchilar sinfi hasharotxo'r turkumining suvda va quruqlikdagi formasi evolutsiyaning umumiy degeneratsiya yo'nalishiga misol bo'ladi.

- B) quruqlikda yashaydi

- C) o'dakburunning oldindi oyog'iga analog

D) sutevizuvchilar sinfi hasharotxo'r turkumining suvda va quruqlikdagi formasi ,evolutsiyaning idioadaptatsiya yo'nalishiga misol bo'ladi.

2. Rustamning oshqozonida xlorid kislotanining kamayishi qanday jarayonlarga olib kelishi mumkin?

1-moddalar almashinuvining dastlabki bosqichi kuchayadi,
2-moddalar almashinuvining oraliq bosqichi kuchayadi,
3-oshqozonda oqsillar peptonlarga aylanib qoladi,
4-dukakkali o'simlik mahsulotlarini istemol qilganda hazm
jarayoni qiyinlashadi, 5-oshqozonda peptid bog'lar uzilishi
sekinlashadi, 6-moddalar almashinuvining dastlabki bosqichi
susayishi mumkin.

A) 1,2,4,5 B) 2,3,4 C) 3,4,5,6 D) 5,6

3. Oilasining gul diagrammasida changchilar soni oshib borish ketma ketligida berilgan o'simliklar qatorini aniqlang.

- A) olga sorbaryasi-boychechak-liftok-javdar-g'o'za
B) jag'-jag'-lola-kanop-sebarga
C) oloy xiyyoli-olg'i-tuxumak-bo'ritaroq
D) skerda-tritikale-kartoshka-gultish

4. Hujayraning tarkibiy qismi mikronaycha bo'lgan organoid(lar)iga tegishli fikrlar berilgan javobni aniqlang.
a-teng miqdorga oqsil va nuklein kislota saqlaydi, b-bir uchi sitoplazmatik membranaga ikkinchi uchi yadroning tashqi membranasiga birikkan, c-odamda mitoz anafazasida bu organoidlar soni xromatidlarga nisbatan 46 marta kam bo'ladi, d-simbioz gipotezasiga yadro paydo bo'lgandan so'ng uning membranalaridan paydo bo'lgan, e-spermatozoidning bo'yin qismida uchramaydi.

A) b,c B) a,b,e C) b,c,d D) a,b,d

5. Interfazadan oldin suvarak, qalampir, shimpanzening 2 tadan hujayrasida jami qancha sentiola bo'ladi?

A) 6 B) 8 C) 10 D) 12

6. Agar malum harakat davomida hujayrada har daqiqada 10 kJ dan energiya sarflansa malum harakat davomida glukoza 20 daqqa chala, 80 daqqa to'liq parchalandi, jami qancha ATP hosil bo'lgan?

A) 20 B) 30 C) 40 D) 18

7. Quyidagilar orasidan noto'g'ri jumlanishi ko'rsating.

A-gastrulatsiyaning mohiyati shundan iboratki, bu jarayon hujayralar to'plamining aralashishi bilan harakterlanadi
B-embrion dastlabki rivojlanish davrida tip uchun umumiylar belgilari jihatidan o'xshash bo'ladi
C-noto'g'ri rivojlanishning biologic ahamiyati shundan iboratki har-xil turning lichinkalari va voyaga yetgan individlar har-xil sharoitda va har-xil oziq bilan oziqlanganligi uchun ular orasida ozuqa va joy uchun raqobat kuzatilmaydi
D-bir tipga mansub organizmlar murtagineg rivojlanishi ko'p tomondan o'xshashdir

8. Ikki xil DNA dan hosil bo'lgan oqsildagi peptidlari yig'indisi 148ga teng .DNA larning uzunliklari o'zaro 20,4nm ga farq qilsa (katta DNA molekulasi A 30% kichigida A 20%) kichik DNA molekulasi dagi C lar sonini toping.

A-78 B-234 C-156 D-117

9. Zorka va norka uchun umumiylar belgilari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

1) oziqlanish usuli; 2) qon aylanish sistemasining markaziy qismi rivojlangan, 3) DNA lari oqsillar bilan kompleks hosil qilgan; 4)sitokinezing sodir bo'lish usuli; 5) Malayada tarqalgan maskirovka qiluvchi hayvon bilan bitta sinfga mansub, 6) ontogenezi bir xil tipda 7)aerob usulda nafas olishi;

8) eukariot organizm emasligi

A) 1, 2, 3, 4, 7 B) 2, 4, 6, 7 C) 3, 5, 7, 8 D) 4, 6, 7

10. Uruglanishi ichki bo'ladigan hayvonlami ko'rsating.

1-cho'rtan 2-koala 3- turkiston gekkoni 4-suvilon 5- gigant salamandra 6- gulmoy 7- beluga 8- triton

A) 1,2,8 B) 4,5,6 C) 2,3,4 D) 1,3,7

11. Sitoxrom oqsili 979 ta peptid bog'idan iborat. Shu oqsil sintezi uchun javobgar DNA qo'sh zanjirida adeninli nukleotidlardan umumiyl nukleotidlarning 20 % ini tashkil etadi. Ushbu DNA bo'lagidagi guanin va sitozin orasidagi vodorod

bog'lar sonini (a), oqsil sinteza javongar DNA fragmentidagi fosfodiefir bog'lar soni (b) ni toping.

A) a-5286; b-2936 B) a-5292; b-5878

C) a-2643; b-2936 D) a-2646; b-2940

12. Populatsiya zichligi normal bo'lgan 1 ha hovuzdagi baliq massasiga teng oziq istemol qilgan oq ayiq massasi ekologik piramida qoidasiga binoan qanchaga ortadi?

A) 1kg B) 10kg C)100kg D) 1000kg

13. Profaza II (a); metafaza II(b) hamda anafaza II (c) da sodir bo'ladigan jarayonlarni juftlab ko'rsating.

- 1) juft-juft holatdagi xromatidalar hujayra markaziga joylashadi; 2) sentromeralar bo'linadi; 3) xromatidalar bir-biridan ajraladi; 4) xromotidalar spirallahshadi; 5) bo'linish urchug'i hosil bo'ladi; 6) xromatidalar alohida xromosomaga aylanadi; 7) yadro qobig'i parchalanadi;
8) xromosomalar ikki qutubga tomon harakaatlansidi;
9) yadrocha yo'qoladi.

A) a-5,7,9; b-6; c-1,3,8 B) a-4,7,9; b-8; c-2,3

C) a-4,5; b-1; c-6,8 D)a-4,9; b-6; c-1,2,3

14. Energiya almashinuvni jarayonida 10650 kJ issiqlik energiyasi ajralib chiqdi. Jarayonning dasrlabki bosqichida 150 kJ issiqlik energiyasi hosil bo'lgan bo'lsa, energiya almashinuvni jarayonida to'liq va to'liqsiz parchalangan 15 molekula glukozadan hosil bo'lgan ATF tarkibidagi energiyani kJ hisoblang.

A) 9000 B) 12000 C) 15000 D) 7500

15. O'simlik bargida fotoliz jarayonidan so'ng 240 ta gidrosil ionlari hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan vodorod ionlari qorong'ulik fazasiga yo'naltirilsa, shu fazada glukozadan tashqari qancha (mol) fosfat kislota hosil bo'lishini aniqlang.

A) I-180 B) I-10 C) I-120 D) I-4320

16. "Samarqand-3", "Yulduz" kabi navli o'simlikka tegishli javobni ko'rsating.


A) tugunakli o'simlik

B) bug'doydoshlar oilasiga mansub

C) changchilar qo'shilib o'sgan

D) gullari ro'vak to'pgulda joylashgan

17. Quyidagi rasmga mos evolyutsiya o'zgarish tipini aniqlang.



A) A-paralelizm, B-divergent

B) A-divergent, B-divergent

C) A-konvergent, B-konvergent

D) A-diztuptiv, B-konvergent

18. Mitselliysi to'siqli zamburug'larning jinsiy ko'payish xillarini ko'rsating. a) maxsus jinsiy a'zolarning ko'payishi; b) suv o'tlarga o'xshash; c) yadrolarning juft-juft bo'lib qo'shilishi; d) membranalarning juft-juft bo'lib qo'shilishi; e) bir hujayra mahsulotining ikkinchisiga ko'chib o'tishi; f) maxsus jinsiy a'zolarning ko'payishi.

A) a,c,e B) b C) c,e,f D) a,d,e

19. Eukariot hujayra paydo bo'lishi haqidagi gipotezalarni ularni isbotlovchi dalillar bilan juftlab ko'rsating.

a) simbioz gipotezasi; b) invaginatsiya gipotezasi; c) ko'p genomli giorteza;

- 1) yadro va sitoplazmadagi plastic jarayonlarning o'xshashligi;
2) mitoxondriyada DNA va RNA ning mayjudligi;
3) mitoxondriya va endoplazmatik to'rning qo'sh membrana bilan o'ralganligi; 4) mitoxondriya va plastidalarning bo'linishi prokariot hujayralar bo'linishiga o'xshashligi;

5) xloroplast, mitoxondriya va yadroning ikki qavat membranasi bo'lishi; 6) xloroplastlarda DNK va RNK ning mavjudligi.

- A) a-1,3,4; b-5; c-2,6 B) a-2,5; b-3,4; c-1,6
C) a-2,5; b-4; c-1 D) a-2,4,6; b-5 c-1

20. Nosning zararli moddalar til ostidagi qon tomirlariga so'rilib, qon orqali qaysi a'zolarni zararlaydi(1), qaysi organlarning rak kasalligiga sabab bo'ladi(2)?

- a) miya; b) oshqozon; c) o'pk'a; d) yurak; e) buyrak;
f) qizilo'ngach; g) jigar; h) og'iz bo'shlig'i
A) 1-a,c,d,e,g; 2-b,f,h B) 1-a,c,e,f,h; 2-c,d,e
C) 1-a,d,g; 2-b,f,h D) 1-a,b,d,e,g,h; 2-c,b,f,h

21. Filtratsiya kuchayib, reabsorbsiya susaysa....

Xos bo'limgan javobni toping

- A) tiroksin ishlab chiqarilishi ortadi

- B) siyidik ajralishi ko'payadi

- C) antidiuretik gormon ishlab chiqarilisgi kamayadi

- D) ikkilamchi siyidik ajralishi kamayadi

22. Krevetkada energiya almashinuvining tayyorgarlik (1), glikoliz(2), aerob (3) bosqichlari metabolizmning qaysi bosqichlarida sodir bo'ladi? a) dastlabki bosqich; b) oralig bosqich; c) oxirgi bosqich

- A) a-2; b-1,3 B) c-1; b-2; a-3

- C) b-3; c-2; a-1 D) b-2,3; a-1

23. Hasharotlarning jinsiy tizimi haqidagi to'g'ri ma'lumot ko'rsatilgan javobni toping.

A) urg'ochisining jinsiy organi ikkita tuxumdon, erkaginiki esa bitta urug'dondan iborat


B) urg'ochilarining jinsiy organi tana bo'shlig'ida joylashgan yirik tuxumdon, erkalarida bir juft uzun urug'don

C)urg'ochisida bir juft tuxumdon, erkagida bir juft urug'don

D) ikkita tuxumdon va pufakka o'xshash urug'don

24. Ushbu rasm nimani ifodalagan?

- A) deletsiya
B) duplikatsiya
C) inversiya
D) translokatsiya



25. Tuzilishiga ko'ra har xil shakl va hajimga ega bo'lgan hujayrani toping.

- A) spermatozoid B) birlamchi tuxum hujayra

- C) blastomerlar D) mezoderma hujayralari

26. Bosh miya yarimsharlari po'stlog'ining mikroskopik tuzilishida hujayralar qanday ketma-ketlikda joylashadi?

a) donador hujayralar; b) piramidasimon hujayralar;

c) nerv hujayralarinin kalta o'simtalari;

d) duksimon hujayralar; e) yulduzsimon hujayralar;

f) piramidasimon yirik hujayralar

- A) b,c,a,d,f,e B) c,a,b,e,f,d

- C) a,b,c,d,e,f D) b,a,c,f,e,d

27. 48 h da yoki 2 d da tinch holatda odam atmosfera havosidan maksimal qancha kislород oladi?

- A) 1440000 ml B) 576000 ml C) 864000 ml D) 0,86 kg

28. Qaysi organizm hujayralarida hayotiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan fermentlar sitoplazma bo'ylab tarqalib ketgan yoki hujayra membranasining ichki tomoniga birikkan bo'ladi? 1) lipa; 2) gommoz; 3) lyupin;

4) rizosfera; 5) nemalion; 6) skerda; 7) psevdomonas;

8) inkarziya; 9) E.coli; 10) vidra

- A) 4,7,9 B) 1,3,5 C) 6,8,10 D) 4,5,6

29. Gemofiliya va daltonizm kasalliklari X-xromosomada joylashgan retsessiv gen orqali nasldan-nasliga o'tadi. Bu genlar o'zaro to'liq birikkan bo'lsa, onasi daltonizm bilan, otasi gemofiliya bilan kasallangan ayolning genotipi qanday bo'ladi va u qanday gametalarni hosil qiladi?

- A) XH d Xh D; XH d ; Xh D
B) HhDd; HD; Hd; hD; hd
C) XH DXh d ; XH D ; Xh d
D) XH d Xh D; XH d ; Xh D; XH D ; Xhd

30. Ko'rsatilgan moddalarning qaysilarida H va O nisbati xuddi suvnikiga o'xshash bo'ladi?

- 1) glikogen; 2) albumin; 3) mum; 4) xitin; 5) sitoxrom;
6) lixenin; 7) moy; 8) glitserin.

- A) 1,2,4 B) 2,5
C) 3,7,8 D) 1,4,6

Tuzuvchi: Maxmudov Ramiz.

Taklif va e'tirozlar uchun: +99893 902 59 02

Tarix 1-variant

1. Birinchi jahon urushining quyidagi janglarida sodir bo'lgan voqealar to'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

- 1) Marna jangi; 2) Somma jangi; 3) Ipr jangi;
a) birinchi bor tanklar qo'llanildi; b) birinchi bor kimyoviy qurol – zaharli gaz (xlor) qo'llanildi; c) Germaniyaning yashin tezligida g'alaba qozonish rejasi barbob bo'lди

- A) 1-c, 2-a, 3-b B) 1-a, 2-b, 3-c
C) 1-b, 2-a, 3-c D) 1-c, 2-b, 3-a

2. O'rta asrlarda arablarga qarshi bo'lib o'tgan xalq qo'zg'olonlarining yillari bilan to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) Kufa shahridagi qo'zg'olon; 2) Abu Muslim qo'zg'olon;

- 3) Muqanna qo'zg'olon; 4) Bobek qo'zg'olon;

- a) 747-749-yillar; b) 685-687-yillar; c) 815-yil; d) 769-783-yillar

- A) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c B) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d

- C) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d D) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c

3. Zardushtiylik dinida hosildorlik va suv ilohasi...

- A) Mitra B) Ahuramazda C) Anaxita D) Ahriman

4. Quyidagi qozoq juzlarining Rossiya imperiyasi tobeligiga o'tgan yillari to'g'ri ko'rsatilgan javobni to'g'ri toping?

- 1) Kichik juz; 2) O'rta juz; 3) Katta juz;

- a) 1747-yil; b) 1732-yil; c) 1739-1740-yillar

- A) 1-c, 2-b, 3-a B) 1-a, 2-c, 3-b

- C) 1-b, 2-c, 3-a D) 1-b, 2-a, 3-c

5. Italiyanı birlashtirish jarayoni kechayotgan davrda Italiya siyosiy tarqoqligining tayanchi bo'lib qolayotgan hududlarni aniqlang.

- A) Vatikan va Sitsiliya B) Sitsiliya va Sardiniya

- C) Sitsiliya va Neapol D) Sardiniya va Neapol

6. Quyida berilgan voqealardan bir yilda sodir bo'lganlarini aniqlang.

1. Xitoy va Buyuk Britaniya o'ttasida Xitoyni yanada asoratga soluvchi konvensiya tuzildi.

2. San-Stefano shartnomasi imzolandi.

3. Fransiyada Uchinchi Respublika Konstitutsiyasi qabul qilindi.

4. Germaniya sotsial-demokratik partiyasi tuzildi.

5. Xristo Botev turklar bilan jangda halok bo'lди.

6. Buyuk Britaniyada haftasiga 54 soat ish vaqtiga belgilandi.

- A) 1, 2, 3 B) 1, 4, 5 C) 2, 5, 6 D) 3, 4, 6

7. 1921-yilda Ispaniya o'zining qaysi mustamlakasidagi milliy-ozodlik harakatini bostirish uchun armiya yubordi?

- A) Somalidagi B) Eritreyadagi

- C) Marokashdagi D) Sudandagi

8. Quyidagi AQSh prezidentlarining prezidentlik davri bilan bog'liq voqealar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) G.Trumen; 2) D.Eyzenxauer; 3) L.Jonson; 4) R.Nikson

- a) televizor ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi; b) SSSRga birinchi bo'lib yadro zarbasi berish maqsadini ko'zlovchi doktrina e'lon qilindi; c) kam daromadli oilalarga yordam berish to'g'risida qonun qabul qilindi; d) mamlakatga olib kelinadigan tovarlar uchun 10%lik boj to'lovi joriy qilindi

- A) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d B) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a

- C) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d D) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b

9. Qadimgi dunyo mashhur harbiy sarkardalarining ular ishtirot etgan janglari bilan moslab ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) Leonid; 2) Miltiad; 3) Filipp II; 4) Gannibal;

a) Fermopil jangi; b) Marafon jangi;

c) Xeroniya yaqinidagi jang; d) Kann yaqinidagi jang.

A) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c B) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b

C) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a D) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d

10. 1875-yilda Nasriddinbek va fon Kaufman o'rtasida imzolangan shartnomada quyidagi qaysi shartlar belgilab qo'yilgan edi?

1) Nasriddinbek o'zini rus imperatorining sodiq quli deb tan olishi;

2) rus imperatori Nasriddinbekni sodiq hamkor deb tan olishi;

3) Nasriddinbek tashqi siyosatda hech qanday bitimlar tuza olmasligi;

4) Rossiya uch million rubl tovon to'lashi;

5) Sirdaryoning o'ng sohilidagi yerlar – Namangan va Chust Rossiya ixtiyoriga o'tganligi;

6) Sirdaryo sohilidagi barcha yerlar Rossiya ixtiyoriga o'tganligi;

7) Rossiya ikki million rubl tovon to'lashi

A) 2, 3, 4, 6 B) 2, 3, 5, 7 C) 1, 3, 5, 7 D) 1, 3, 4, 6

11. Quyidagi o'rta asrlar davlatlari poytaxtlari bilan moslab ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) Chingizxon davlati; 2) Usmonlilar imperiyasi; 3) Yaponiya.

a) Kioto; b) Qoraqurum; c) Istanbul.

A) 1-c, 2-b, 3-a B) 1-a, 2-b, 3-c

C) 1-b, 2-a, 3-c D) 1-b, 2-c, 3-a

12. Subhonqulixon hukmronligi davrida kimlarga qarshı kurash olib borganligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) Balx viloyatida hukmronlik qilayotgan o'g'llariga qarshı;

2) Mavarounnahr sarhadlariga bostirib kirgan qozoq sultonlariga qarshı;

3) Mavarounnahr viloyatidagi amir va beklargaga qarshı;

4) Xiva xoni Anushaxon qo'shinlariga qarshı;

5) Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliquqa qarshı;

6) qalmiq va oyratlarga qarshı

A) 2, 3, 4 B) 1, 3, 4 C) 1, 5, 6 D) 2, 3, 6

13. XVI asrda vujudga kelgan "quloqlar qabristoni" (o'ldirilgan koreyslardan kesib olingen 30 mingta quloq va burun ko'milgan) qaysi xalqning bosqinchilikdagi vaxshiyligining isboti hisoblanadi?

A) mo'g'ul B) yapon C) xitoy D) manchjur

14. Ikkinchiji jahon urushi yillarda O'zbekistonda tuzilgan, qaysi diviziya Kalugani ozod etishda ko`rsatgan matonati uchun gvardiyachi diviziya unvoniga sazovar bo`lgan?

A) Panfilov diviziyasi B) 24-o'qli diviziyasi

C) 258-o'qli diviziyasi D) 353-o'qli diviziyasi

15. Avstriya-Vengriya imperiyasi vujudga kelgach oradan necha yil o'tib imperiya poytaxti Vena shahrida ishchilarining demokratik erkinliklar berilishini talab qilgan ommaviy namoyishlari bo'lib o'tdi?

A) 4 yil B) 2 yil C) 1 yil D) 3 yil

16. Fransyaning markazlashuviga olib kelgan tasarrufidagi yerlarni birlashtirish jarayonini boshlab bergan qirol Lyudovik VI nechanchi asrda hukmronlik qilgan?

A) XII asrda B) XI asrda C) X asrda D) XIII asrda

17. Qaysi yillarda Buyuk Britaniya iqtisodiyotida turg'unlik saqlanib qolgan?

A) 1920-1922-yillar B) 1926-1929-yillar

C) 1922-1923-yillar D) 1930-1933-yillar

18. Eftaliylar davrida O'rta Osiyo aholisining madaniy an'analarini qo'shni mamlakatlar, xususan....

A) dasht aholisi mahalliy me'morchilik an'analarini bilan uyg'unlashib ilk o'rta asr madaniyatining shakllanishida muhim rol o'ynadi

B) Xitoy va Eron tasviriy uslublari bilan uyg'unlashuvi yuz berib ilk o'rta asrlar madaniyatining shakllanishiga ta'sir etdi

C) Hindiston va Eron tasviriy uslublari bilan uyg'unlashib ilk o'rta asrlar madaniyatining shakllanishida mustahkam poydevorga aylandi

D) Turkiy xalqlari madaniyati an'analarining qo'shilishi va ilk o'rta asrlar madaniyati ravnraqiga olib keldi

19. 1946-yil Yaponiya parlamenti tomonidan qabul qilingan agrar islohot to'g'risidagi qonunning maqsadi nima edi?

A) sanoatni qayta tiklash

B) davlatning qishloq xo'jaligidagi rolini kuchaytirish

C) fermer xo'jaligini tugatish

D) pomeshchik yer egaligini tugatish

20. Xitoya milliy buyuk inqilobdan keyin Gomindan partiyasi faoliyati bilan bog'liq holatlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

1) iqtisodiyoti bozor munosabatlari asoslangan jamiyat qurish; 2) xususiy mulknii himoya qilish; 3) davlat mulknii qo'llash va xususiy mulknii tugatish; 4) Xitoyni chet davlatlar uchun ochiq deb e'lon qilish; 5) milliy bozor rivojiga g'ov bo'layotgan ichki boj to'siqlarini bekor qilish

A) 3, 4, 5 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 5

21. O'zbekistonda "Sihat-salomatlilik yili" deb nomlangan yilda yuz bergen voqealarni aniqlang.

1) Toshkentda Moskva Davlat Universitetining filiali ochildi;

2) "Isuzu" markali avtobuslar ishlab chiqarish boshlandi;

3) Sankt-Peterburg shahrida Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti davlat rahbarlarining kengashida Markaziy Osiyo Umumiy bozorini barpo etish konsepsiysi tasdiqlandi; 4) Moskvada O'zbekiston-Rossiya o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnomaga imzolandi;

5) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tuzilib, faoliyat yurita boshladi

A) 1, 2, 4 B) 3, 4, 5 C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 5

22. O'zbekistonda 1943-1944-yillarda yangidan ochilgan institutlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

1) Chimboy pedagogika instituti; 2) Marg'ilon o'qituvchilar instituti;

3) Toshkent teatr san'ati instituti; 4) Andijon tillar instituti; 5) Toshkent pediatriya instituti

A) 1, 2, 3 B) 1, 3, 5 C) 3, 4, 5 D) 2, 3, 4

23. O'rta Osiyo hududlarida dastlabki tanga pullar tarqalgan davrni aniqlang.

A) mil.avv III-II asrlar B) mil.avv IV-III asrlar

C) mil.avv V-IV asrlar D) mil.avv II-I asrlar

24. 1954-yilning aprel-iyul oylarida Jenevada bo'lib o'tgan Konferensiya qanday masalaga bag'ishlanganligini aniqlang.

A) Yevropadagi xavfsizlik va hamkorlik

B) Yadro quroldan foydalish va uni tarqatishni man etish

C) Germaniyani yagona davlatga birlashtirish

D) Hindixitoya tinchlik o'rnashish

25. Imperator Vilgelm II davrida ochilgan, Shimoliy dengiz bilan Boltiq dengizini tutashtirgan kanalni aniqlang.

A) Reyn B) Angra-Peken C) Kil D) Bungo

26. XIX asrning 90-yillariga kelib Germaniya hukmron doiralari tomonidan Tinch okeanida qo'lga kiritilgan hududlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

1) Kurill orollari; 2) Karolina orollari; 3) Mariana orollari; 4) Gavay orollari; 5) Samoa orolining bir qismi; 6) Marshall orollari; 7) Faros oroli; 8) Filippin oroli.

A) 1, 2, 4 B) 2, 3, 5 C) 4, 5, 6 D) 1, 6, 8

27. Turkiston general-gubernatori bosh qo'mondonlikdan tashqari yana qanday lavozimmi egallagan?

A) bosh vazir B) bosh sudya

C) xazinabon D) politsiya boshlig'i

28. Toshkentda birinchi rus-tuzem maktabi va birinchi gimnaziya ochilgan yillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) 1889-, 1894-yillar B) 1884-, 1896-yillar

C) 1884-, 1894-yillar D) 1885-, 1911-yillar

29. Mashhad-Saraks-Tajan temiryo'l liniyasi qurilgan davrni aniqlang.

A) 1992-1996-yillar B) 1993-1996-yillar

C) 1994-1996-yillar D) 1991-1996-yillar

30. O'zbekiston Konstitutsiyasida qayd etilgan respublika fuqarolarining siyosiy huquqlariga quyidagilardan qaysi biri muvoqif emas?

A) vakolatlari davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi

B) o'z ijtimoiy faoliyini mitinglar, namoyishlar va yig'ilishlar shaklida amalga oshirish huquqi

C) o'z huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar bilan tanishib chiqish huquqi

D) kasaba uyushmalariga, jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirot etish huquqi

Tuzuvchi: Jahongir Safarov

Taklif va e'tirozlar uchun: +99891 322 29 78

